

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 298 sahifa.
2025-yil, 16-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	



RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Buxgalteriya hisobi va menejment" fakulteti tyutori
Email: xayriniso.eshbekova.1503@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'liqni saqlash sohasida mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi. Resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida samarali boshqaruv, raqamli texnologiyalar joriy etilishi va kadrlar malakasini oshirish kabi omillarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritiladi. Maqola mamlakat sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda resurslarni to'g'ri taqsimlash va foydalanishning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik, xizmatlar sifati, tibbiyot boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, optimallashtirish, kadrlar malakasi.

Abstract. This article analyzes methods to improve the economic efficiency of healthcare services through the effective utilization of available resources. It examines modern approaches to resource optimization, cost reduction, and quality improvement in healthcare delivery. The impact of effective management, the implementation of digital technologies, and staff skill enhancement on economic efficiency are also highlighted. The article emphasizes the importance of proper allocation and use of resources for the development of the national healthcare system.

Keywords: healthcare, effective resource utilization, economic efficiency, service quality, healthcare management, digital technologies, optimization, staff competency.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы повышения экономической эффективности здравоохранения за счет рационального использования имеющихся ресурсов. Анализируются современные подходы к оптимизации ресурсов, снижению затрат и повышению качества услуг. Особое внимание уделяется влиянию эффективного управления, внедрения цифровых технологий и повышения квалификации кадров на экономическую эффективность системы здравоохранения. Статья подчеркивает важность правильного распределения и использования ресурсов для развития национальной системы здравоохранения.

Ключевые слова: здравоохранение, рациональное использование ресурсов, экономическая эффективность, качество услуг, управление здравоохранением, цифровые технологии, оптимизация, квалификация кадров.

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu soha aholining hayot sifatini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va davolash, shuningdek, umr ko'rish davomiyligini oshirish kabi asosiy maqsadlarni amalga oshiradi. Biroq, bugungi kunda sog'liqni saqlash xizmatlarining ko'lamining kengayishi va murakkablashuvi natijasida ushbu sohada resurslarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshmoqda. Shu bilan birga, davlat budjeti va moliyaviy imkoniyatlar chegaralanganligi sababli, sog'liqni saqlash xizmatlarining samarali ta'minlanishi va iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishi dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida resurslar – moddiy, moliyaviy, insoniy va texnologik omillar – samarali boshqarilishi kerak. Resurslardan samarali foydalanish orqali nafaqat xizmatlar sifati oshiriladi, balki ularning iqtisodiy samaradorligi ham ta'minlanadi. Bu esa tibbiy yordam ko'rsatishning xarajatlarini kamaytirish, xizmatlarni optimallashtirish va resurslarni isrof qilmaslik orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, sog'liqni saqlash

tizimida resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va malakali kadrlar tayyorlash kabi omillar sog'liqni saqlashda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda katta rol o'ynamoqda. Shuningdek, xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va samarali menejment usullari iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, sog'liqni saqlash tizimida mavjud resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanish usullarini o'rganish, ularni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan biridir. [2]

Ushbu maqolada resurslardan samarali foydalanish orqali sog'liqni saqlash xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari, ularning asosiy tamoyillari va zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va istiqbolli yo'nalishlar ham ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sog'liqni saqlash tizimlarida resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish sohasida olib borilgan tadqiqotlar keng qamrovli va xilma-xildir. Ushbu tahlilda asosiy yondashuvlar, metodologiyalar va olingan natijalar umumlashtirilgan.

Xitoyda olib borilgan tadqiqotlar, masalan, 2015-yilda joriy etilgan ierarxik tibbiy siyosatning sog'liqni saqlash resurslarini samarali taqsimlashga ta'sirini o'rganib, bu siyosatning umumiy samaradorlikni oshirishga yordam berganini ko'rsatdi. Biroq, ba'zi hududlarda bu ta'sir aralash bo'lib, ijobiy va salbiy natijalarni ko'rsatdi. Jiangsu viloyatidagi qishloq klinikalarida olib borilgan tadqiqotlar esa resurs taqsimoti samaradorligining suboptimal ekanligini aniqladi, bu esa resurslarni yanada samarali taqsimlash zarurligini ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash sohasida inson resurslarini boshqarish iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi. 2019–2024-yillarda olib borilgan tizimli tahlil, sog'liqni saqlash tashkilotlarida kadrlar boshqaruvi strategiyalarining iqtisodiy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Xususan, xodimlarni rejalashtirish, yollashni optimallashtirish va ishchi kuchini saqlab qolish samaradorlikni 15–25% ga oshirgan. [3]

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, raqamli yechimlar sog'liqni saqlashda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Edge computing va aqlli shifoxonalar kontseptsiyasi, IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida resurslarni boshqarish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Sog'liqni saqlash tizimlarining samaradorligini baholashda Data Envelopment Analysis (DEA) va Tobit regressiya usullari keng qo'llaniladi. Jiangsu viloyatidagi jamoat sog'liqni saqlash markazlarida olib borilgan tadqiqotlar, bu metodlarni qo'llash orqali resurs taqsimoti samaradorligini baholash va samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash imkonini berdi. [5]

Saudiya Arabistonida davlat shifoxonalarining samaradorligini baholashda Case Mix Index (CMI) yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, shifoxonalar o'rtasida CMI ko'rsatkichida farqlar mavjud bo'lib, bu samaradorlikni oshirish uchun benchmarking va samarali menejment usullarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash xizmatlarida resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish usullarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Buning uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanilgan bo'lib, nazariy va amaliy jihatlar o'rganilgan. Tadqiqot adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish bosqichida sohaga oid ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro va mahalliy sog'liqni saqlash tashkilotlari hisobotlari chuqur tahlil qilindi. Bu usul mavzuning nazariy asoslarini aniqlash va mavjud yondashuvlarni o'rganish imkonini berdi.

Empirik usullar orqali maqola doirasida so'rovnomalar, intervyular va ekspert baholari asosida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatida resurslardan foydalanishning samaradorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rganildi. Bu usul real holatlarni chuqur tahlil qilish hamda olingan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratdi.

Statistik va iqtisodiy tahlil orqali olingan ma'lumotlarga asoslanib, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (masalan, xarajatlar samaradorligi, rentabellik, investitsiya qaytishi) statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash uchun Data Envelopment Analysis (DEA), Stokastik Frontier Analiz (SFA) kabi samaradorlikni o'lchash metodlari qo'llanildi. Keng qamrovli taqqoslash orqali O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi hamda boshqa mamlakatlar tajribasi solishtirilib, samaradorlikni oshirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar aniqlanib, mamlakatimiz sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi. [7, 8]



Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi davlat va nodavlat sog'liqni saqlash muassasalari tanlandi. Tadqiqotning amaliy qismi katta shaharlar va qishloq hududlaridagi tibbiyot muassasalarini qamrab oldi. Ma'lumotlar yig'ishda rasmiy statistika, muassasalarning moliyaviy hisobotlari, sog'liqni saqlash sohasidagi monitoring ma'lumotlari hamda so'rovnoma va intervyulardan foydalanildi. Keyin ma'lumotlar tozalandi, kodlandi va maxsus dasturlar yordamida (SPSS, Stata, R) tahlil qilindi. Tahlil natijalari grafiklar, jadvallar va diagrammalar ko'rinishida taqdim etildi. Tadqiqot jarayonida respondentlarning roziligi olinib, ularning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlandi. Tadqiqot etik qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda olib borildi. Ushbu metodologiya yordamida maqola mavzusining nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovda o'rganilib, sog'liqni saqlash xizmatlarida resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga oid aniq va asosli xulosalar chiqarish imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi oxirgi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi ortgan, yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda, raqamlashtirish darajasi oshmoqda. Biroq mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi hamma hududlarda bir xilda emas.

Hududlar kesimida o'tkazilgan tahlil sog'liqni saqlash muassasalarida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

Tibbiyot xodimlarining noto'g'ri taqsimlanishi (ayniqsa, qishloq joylarda malakali mutaxassislar yetishmasligi);

Tibbiy texnikaning eskirganligi yoki to'liq foydalanilmayotgani;

Energiya va suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanilmasligi;

Budjet mablag'larining samarali yo'naltirilmasligi;

Xizmatlar ko'rsatish jarayonida takroriy harakatlar, byurokratik to'siqlar.

Tahlil natijalari sog'liqni saqlashda xizmatlar sifati oshishi bilan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining o'sishini ko'rsatdi. Masalan:

Elektron sog'liqni saqlash tizimi (E-health) joriy etilgan muassasalarda bemorlarni qabul qilish va davolash tezligi oshgan, bu esa xizmat ko'rsatish aylanishini tezlashtirib, bir bemor uchun tushadigan xarajatni kamaytirgan;

Klinik protokollar va standartlar asosida ishlash resurslardan foydalanishda samarasizlikni kamaytirgan va xizmat sifati oshgan.

Empirik ma'lumotlar asosida olib borilgan hisob-kitoblar sog'liqni saqlash muassasalarida quyidagi o'zgarishlarni aniqladi:

1-jadval. Tahliliy ko'rsatkichlar asosida iqtisodiy samaradorlikni aniqlash¹

T/r	Ko'rsatkich	Islohotgacha	Islohotdan keyin	O'sish foizi
1	Bemorlar soni (oylik o'rtacha)	1 200	1 520	+26.7%
2	O'rtacha davolanish xarajati	890 ming so'm	710 ming so'm	-20.2%
3	Davolash muddati (o'rtacha kun)	7 kun	5,4 kun	-22.8%
4	Ishlab chiqarish samaradorligi	100%	128%	+28%

Bu ko'rsatkichlar sog'liqni saqlashda xizmatlar sifatini oshirish bilan birga resurslardan foydalanish samaradorligini va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi raqamli yechimlar iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda:

Elektron navbat tizimi – bemorlarni navbatsiz qabul qilish, vaqtni tejash va xodimlar yuklamasini kamaytirgan.

Elektron tibbiy karta – takroriy tekshiruvlar va keraksiz harajatlarni qisqartirgan.

Telemeditsina – uzoq hududlarda resurslarni qayta taqsimlashga imkon bergan.

Kadrlar malakasi va menejment salohiyati resurslardan foydalanishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlangan. Malakali boshqaruvchilar ishlayotgan muassasalarda:

xarajatlar aniq rejalashtiriladi,

isrofgarchilik darajasi past bo'ladi,

xizmatlar sifati va bemorlar qoniqish darajasi yuqori bo'ladi.

Tahlillar davomida sog'liqni saqlash tizimida quyidagi cheklovlar aniqlandi:

1 Tahliliy ko'rsatkichlar asosida muallif ishlanmasi

Resurslar bo'yicha yagona elektron monitoring tizimining mavjud emasligi,
Hududiy tengsizlik (resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik),
Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda byurokratik to'siqlar,
Mahalliy darajada moliyaviy avtonomiya yetishmasligi.

Tahlillar ko'rsatdiki, sog'liqni saqlash tizimida resurslardan samarali foydalanish orqali nafaqat xizmatlar sifati, balki butun tizimning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Bu yo'lda asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish,
Kadrlar salohiyatini oshirish,
Resurslar monitoringi va tahlil tizimlarini joriy etish,
Innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash,
Davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlarini kengaytirish.

2-jadval. Sog'liqni saqlash tizimida resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha SWOT-tahlili²

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
A. Davlat tomonidan sog'liqni saqlash sohasiga doimiy e'tibor va investitsiyalar; C. Raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda (e-health, elektron kartalar); E. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik (WHO, UNDP) orqali texnik yordam; G. Sifat menejmenti tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish; H. Profilaktik xizmatlarga urg'u ortib bormoqda.	A. Resurslar (kadrlar, texnika, moddiy baza) bo'yicha hududlar o'rtasida nomutanosiblik; B. Malakali tibbiyot xodimlari yetishmasligi, ayniqsa, chekka hududlarda; C. Moliyaviy resurslardan foydalanishda shaffoflikning yetarli emasligi; D. Ko'plab muassasalarda energiya va resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanish; E. Resurslardan foydalanish samaradorligini baholovchi tizimlarning yo'qligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
A. Innovatsion texnologiyalar (AI, IoT, telemeditsina) yordamida resurslardan samarali foydalanish; B. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) orqali qo'shimcha investitsiyalar jalb etish imkoniyati; C. Mahalliy darajadagi boshqaruv va avtonomiya oshishi; D. Sog'liqni saqlash sohasida xalqaro grantlar va kreditlar jalb etish; E. Qishloq joylarda mobil klinikalar va innovatsion yechimlar orqali xizmatlar qamrovini kengaytirish.	A. Byurokratik to'siqlar va sust islohotlar natijasida resurslar isrof bo'lishi; B. Tibbiyot xodimlarining xorijga ketishi (miya oqimi) — inson resurslari yo'qotilishi; C. Raqamlashtirish jarayonida xavfsizlik va maxfiylik tahdidlari; D. Aholi sonining ortishi natijasida resurslarga yuklama oshishi; E. Tabiiy ofatlar yoki pandemiyalar vaqtida tizimga ortiqcha bosim tushishi.

SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida mavjud kuchli tomonlar va imkoniyatlar samarali strategik yondashuv orqali zaifliklarni bartaraf etish va tahdidlarni kamaytirish uchun katta salohiyatga ega. Resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson resurslari salohiyatini oshirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar bo'lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog'liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishi bevosita resurslardan oqilona foydalanishga bog'liq. Ushbu tadqiqotda sog'liqni saqlash muassasalarida mavjud moddiy, moliyaviy, texnologik va inson resurslaridan foydalanish holati o'rganildi va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki:

2 Muallif ishlanmasi



Resurslardan foydalanishning amaldagi holatida hududlar o'rtasida nomutanosiblik mavjud; Ko'plab muassasalarda isrofgarchilik, samarasiz xarajatlar va takroriy funksiyalar kuzatilmoqda; Raqamli texnologiyalar joriy etilgan muassasalarda samaradorlik yuqoriroq bo'lib, bu texnologiyalarning iqtisodiy jihatdan foydali ekanini isbotlaydi;

Sifatli xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimining yaxshilanishi xizmatlar iqtisodiy samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, ammo mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Tizimda resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun quyidagi aniq takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Elektron tibbiy karta, navbatni boshqarish tizimi, onlayn tashxis va telemeditsina xizmatlari orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Raqamli boshqaruv tizimlari orqali moliyaviy va texnik resurslarning harakati ustidan nazoratni kuchaytirish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, hududlar o'rtasida resurslar taqsimotini optimallashtirish lozim.

Tibbiy kadrlar, uskunalar va dori vositalarini aholining sog'liq holati va hududiy ehtiyojlarga qarab taqsimlash tizimini ishlab chiqish kerak. Chekka hududlarga malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun maxsus rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish taklif etiladi.

Uchinchidan, sog'liqni saqlash muassasalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish zarur. Xizmatlar sifati ustidan doimiy monitoring va baholash tizimini shakllantirish; ISO 9001 kabi xalqaro standartlarga asoslangan xizmat ko'rsatish mexanizmlarini qo'llash tavsiya etiladi. Klinik protokollar asosida xizmat ko'rsatish xarajatlarni kamaytirib, davolanish samaradorligini oshiradi.

To'rtinchidan, tibbiy va boshqaruv xodimlarining salohiyatini oshirish lozim. Inson resurslari sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Sog'liqni saqlash muassasalarida iqtisodiy tahlil, resurslarni rejalashtirish va moliyaviy menejment bo'yicha bilimga ega rahbarlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish kerak. Har bir muassasada xarajatlarni rejalashtirish va monitoring qilish tizimini kuchaytirish orqali resurslar isrofini kamaytirish mumkin. Davlat-xususiy sheriklik asosida sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish va qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish tavsiya etiladi.

Oltinchidan, innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish zarur. Energiya tejamkor texnologiyalar, mobil klinikalar, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tahlil tizimlari kabi innovatsiyalar sog'liqni saqlashda xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion loyihalarni moliyaviy, texnik va normativ-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar aniq ijobiy natijalar bermoqda, biroq mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish va tizim samaradorligini oshirish uchun resurslardan foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur. Ushbu takliflarda ta'kidlangan raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlar o'rtasida resurslar taqsimotini optimallashtirish, sifat menejmenti tizimini kuchaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish hamda innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish kabi yo'nalishlar tizim samaradorligini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida resurslarning harakati va foydalanilishi yanada aniq nazoratga olinib, xizmat ko'rsatish jarayonlari optimallashtiriladi. Hududlar o'rtasida malakali kadrlar va tibbiy resurslarni adolatli taqsimlash orqali barcha aholiga teng sifatli tibbiy xizmat yetkazish imkoniyati kengayadi. Sifat menejmenti tizimlari va xalqaro standartlarning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshiradi hamda xarajatlarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Shuningdek, tibbiy va boshqaruv xodimlarining malakasini doimiy oshirib borish, iqtisodiy va moliyaviy bilimlarga ega rahbarlarni tayyorlash tibbiyot muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Moliyaviy boshqaruv tizimini kuchaytirish orqali resurslarning isrofgarchiligi kamaytiriladi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari esa infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda qo'shimcha investitsiyalar jalb etishga xizmat qiladi.

Oxir-oqibat, innovatsion texnologiyalar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirib, xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Energiya tejamkor yechimlar, sun'iy intellekt va mobil xizmatlar orqali xarajatlarni optimallashtirish bilan birga, bemorlar ehtiyojlariga tez va sifatli javob berish imkoniyati yaratiladi. Shunday qilib, mazkur takliflar tizimli amalga oshirilsa, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy samaradorligi va xizmat sifati sezilarli darajada oshadi, aholining salomatligini mustahkamlash hamda milliy sog'liqni saqlash sohasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari” PQ – 5113 son Qarori.
2. “Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2023). Milliy sog'liqni saqlash tizimida sifatni baholash indikatorlari bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent: SSV nashriyoti.
4. A.Donabedian (1988). The quality of care: How can it be assessed? JAMA, 260(12), 1743–1748. <https://doi.org/10.1001/jama.1988.03410120089033>
5. World Health Organization (WHO). (2018). Delivering quality health services: A global imperative for universal health coverage. Geneva: WHO, OECD, and The World Bank.
6. OECD. (2020). Health at a Glance 2020: OECD Indicators. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/4dd50c09-en>
7. A.O.Arah, S.N.Klazinga, D.M.Delnoij, A.H.Asbroek, T.Custers (2003). Conceptual frameworks for health systems performance: A quest for effectiveness, quality, and efficiency. International Journal for Quality in Health Care, 15(5), 377–398.
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100